

**INTERFAOL USULLAR VA ULARNI TIL O'RGANISHDAGI
SAMARADORLIGI**

Xamdamova Nasibaxon Boxodir qizi
*Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va
Psixologiya fakulteti 2-kurs magistranti*

ARTICLE INFO

**ARTICLE
HISTORY:**

Received: 19.04.2024

Revised: 20.04.2024

Accepted: 23.04.2024

ABSTRACT:

Ushbu maqolada chet til o'qitish metodikasi haqida, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet til o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida so'z boradi.

KEYWORDS:

*Metodika, innovatsiya,
chet tili, kommunikatsiya,
ko'nikma, malaka,
didaktika,
madaniyatlararo muloqot.*

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion - inglizcha "yangilikni kiritish (tarqatish)" ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarni o'rgangan. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. "Yangilik"- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta'lim, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurrakib, rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning ijrosi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan joriy yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili" deb nomlashi ham mamlakatimiz yoshlarining ma'suliyatini yanada oshirdi. Ta'lim sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo'lmaydi. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til

hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi. Chet til - bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabanning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir. Metodikaning predmeti - chet til predmeti orqali ta'lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o'rgatish ilmi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti sanaladi. Metodikaning asosiy tushunchalari - metod, usul, prinsip. Didaktika- nimani o'rgatamiz? o'qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika - qanday o'rgatamiz? ta'lim usullari va metodlari demakdir. Metod - metodika tushunchasi grek-lotınca "metodos-"metodus" so'zidan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma'nosini uchratish mumkin. "Metodika" atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi. "Metod" atamasi keng ma'noda o'quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab "didaktika" va "metodika" tor ma'noda qo'llanilib kelinmoqda. Shunga ko'ra didaktika ta'lim mazmuni nima o'rgatiladi? Metodika esa ta'lim usullari qanday o'rgatiladi? Masalalari bilan shug'ullanadi. Chet tillarini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi. Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Jumladan, chet til o'qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiy va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug'ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodikaga oid kitoblarning eng qimmatlilari ham tilshunoslar tomonidan yozilgan. Bular jumladan XIX asr fonetistlaridan biri va buyuk ingliz tilshunosi G.Suit, XIX asr oxiri va XX asr boshida Angliyada eng original fonetist va nazariyotchi tilshunos hisoblangan O.Yespersion, XIX asrning oxiri va

=====

XX asr boshlarida eng ko'zga ko'ringan fransuz lingvistlaridan F.Bryuns va Brealya, ko'zga ko'ringan anglist va taniqli fonetist V.Fiyotor va boshqalar kiradi. Rossiyada til o'qitish metodikasi masalasi bilan akademik L.V.Shcherba va uning ustozlari buyuk tilshunos olim I.A.Boduen-de-Kurtone va ularning shogirdlari shug'ullanganlar. Chet til o'qitish metodikasiga psixologlar o'zgacha munosabatda bo'ldilar. Metodika va psixologiya fanlarning o'zaro munosabatlari haqida professor V.A.Artemov qimmatli fikr bildirgan. Uning fikricha, psixologiya metodika uchun material beradi. Metodika o'qituvchining qanday dars o'tishini o'rganadi. Psixologiya esa, o'quvchilarning bu predmetni qanday o'zlashtirib olayotganliklari bilan shug'ullanadi. Lekin, bu fikrga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Chunki o'qituvchi dars berish jarayonida, o'quvchi esa o'zlashtirish davrida ma'lum ruhiy jarayon va holatlarni boshdan kechiradilar, ular xohlaydilar, yo'qmi psixologiyani qonunlariga ro'baro bo'ladilar va ta'sirlanadilar. Metodika tarixga oid adabiyotlarni chuqurroq o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san'at deyishadi. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, ya'ni "yaxshi" yoki "yomon" metod yo'q "yaxshi" yoki "yomon" o'qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda bayon qilingan fikrlari bilan javob berishi mumkin. U jumladan shunday deydi: "Agar kimki metodikani san'at deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalida qo'llanishi bilan qorishtirib yuboradi". Har bir fanda o'z tushunchalar yig'indisi mavjud. Chet til o'qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lim sistemasi, ta'lim metodi, ta'lim prinsipi, ta'lim vositasi, metodik usul. Chet til o'qitish metodi - deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, tog'ri metod, ongli- qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi. Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelikning inikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbai bo'la oladi, misol uchun, "til" ijtimoiy hodisasini o'z nuqtai nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruxshunoslik (psixologiya), ta'limshunoslik (didaktika) o'rganadi. "Chet til metodikasi" atamasi kishi ongida quyidagicha ya'ni assotsiatsiya "bog'lanish" uyg'otadi: avvalambor, tilni o'rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig'indisi tushuniladi yoki o'qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar va nihoyat, mustaqil pedagogik fan ko'z oldimizga keladi. Chet til o'qitish metodikasi didaktika bilan uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Chet til o'qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta'limining umumiy nazariyasi, metodika muayyan o'quv predmetini o'qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o'qitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o'qitish ilmi sifatida qaraladi. "Metod" atamasi bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi o'qituvchi-pedagog va talabani ish usuli ma'nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son -sanoqsiz ta'riflarga ega. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq

=====

=====

davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", "tog'ri", "qiyosiy", "aralash" deb atash qabul qilingan. Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko'rinishda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish talimning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o'rganish yozma nutqqa asoslangan.
2. O'rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.
3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so'ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.
4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosi so'zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan.
5. So'zma-so'z tarjima va quruq yodlash yo'li bilan til materialini o'zlashtirilgan.
6. So'zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.

Tarjimasiz metod. Mazkur metodning turli ko'rinishlari tarixan ma'lum. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: tabiiy va tog'ri metodlar. Tabiiy metodda chet tilni o'rganish ona tilini egallash sharoitiga monand bo'lishi kerak. Metodning bosh maqsadi chet tilida gapirishni o'rganish orqali o'qish va yozishni o'rganib olishga imkoniyat yaratiladi, degan g'oya amaliy maqsadlarida shakllangan. Tabiiy metod tarkibiga kiritilgan prinsiplardan eng muhimi- til muhitini yaratishdir. Olg'a surilgan metodik prinsiplarni amalda qo'llash bobida turli yondashuvlar paydo bo'lgan. Metod namoyondalarining ijodiy faoliyatida buni yaqqol sezish mumkin. Chet til ta'limidan ko'zlangan maqsadning yangicha talqinida, asosan, pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanildi. Tilshunoslikning bu sohasi tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb talqin qiladi. Chet til ta'lim sohasida 70-yillarning boshidan beri to'plana boshlangan yangi xulosalar majmui ta'lim maqsadini belgilash sohasida qizg'in munozaralariga olib keldi. Chet til ta'limining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi maqsadi o'quvchilarga "muomala qilishni o'rgatish", "Befaeigung zur Kommunikation" (kommunikative Kompetenz) bo'lgan yangi o'quv rejaları qabul qilindi. 70-yillarda "kommunikativ metod" bir qator urinishlardan so'ng bir necha bosqichda o'z isbotini topdi. Shunday asnoda metodika fani rivojlanib bordi. Hech qaysi chet tilni biz uning metodikasini chuqur o'rganmasdan egallay olmaymiz. Chet til o'qitish metodikasida "kommunikativ didaktika" metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi.

- Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi;
- mavzu va mazmun muhim;
- darsdagi asosiy ish shakli: suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash;
- o'quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e'tibor katta bo'lishi zarur;
- Tushunishdan fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e'tibor berish;
- Ma'noni ochishda, harakat ko'lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko'rish tayanchi) muhim ro'l o'ynaydi;

-
- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o'rganish (dialogni mashq qilish);
 - Tildan og'zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim hisoblanadi.

Pedagogning innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni ham qamrab oladi. Yuqoridagi barcha fikr va mulohazalardan ko'rinib turibdiki, bunday ijobiy natijalarga erishish uchun pedagog chet til o'qitishda keyingi qadam, ya'ni "mashq texnologiyasi"ga murojat etishi lozim va uni amalda qo'llash bilim olishdagi ko'nikma va malaka sari yetaklaydi.

XULOSA: Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet til o'rganish natijasida o'zga mamlakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Chet til ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun "mashqni tashkil qilish texnologiyasi" muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Chet til o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so'ngi qadam, "mashq texnologiyasi"ga e'tibor qaratish muhim. Chet til o'rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlar egallash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O 'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o 'mi va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education.
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education.
3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences .
4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. Science and Education,